

**JADIDCHILIK HARAKATI: MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA  
MA’RIFATPARVARLIKNING TARIXIY VA ZAMONAVIY AHAMIYATI**

**Xolmatov G‘ayratjon Muxtoraliyevich**

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat pedagogik instituti, O‘zbekiston

E-mail: [xolmatovgayratjon381@gmail.com](mailto:xolmatovgayratjon381@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-8248-1791>

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20009912>**

*Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning asosiy maqsad va vazifalari hamda jadidlar ta’limotida milliy g‘oya va ma’naviyat masalalarining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Jadid mutafakkirlarining ma’rifatparvarlik qarashlari, milliy ongni shakllantirish, xalqni ilm-fan va taraqqiyot sari yetaklash yo‘lidagi faoliyati yoritib beriladi. Shuningdek, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy yuksalish g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab kelayotgani asoslab beriladi. Maqolada jadidlar merosining zamonaviy jamiyat ma’naviy taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.*

*Kalit so‘zlar: jadidchilik, milliy g‘oya, ma’naviyat, ma’rifatparvarlik, milliy ong, ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik, jadid mutafakkirlari, ma’naviy meros*

**ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ: ИСТОРИЧЕСКОЕ И СОВРЕМЕННОЕ  
ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ, ДУХОВНОСТИ И  
ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА**

*Аннотация: В данной статье анализируются возникновение джадидского движения, его основные цели и задачи, а также отражение национальной идеи и духовности в учении джадидов. Освещаются просветительские взгляды джадидских мыслителей, их деятельность, направленная на формирование национального самосознания и приобщение*

*народа к науке и прогрессу. Также обосновывается актуальность идей джадидов о воспитании и образовании, патриотизме, национальной идентичности и духовном развитии в современных условиях. В статье раскрывается значение наследия джадидов в духовном развитии современного общества.*

**Ключевые слова:** *джадидизм, национальная идея, духовность, просветительство, национальное самосознание, воспитание и образование, патриотизм, джадидские мыслители, духовное наследие*

### **JADID MOVEMENT: THE HISTORICAL AND MODERN SIGNIFICANCE OF NATIONAL IDEA, SPIRITUALITY, AND ENLIGHTENMENT**

**Abstract:** *This article analyzes the emergence of the Jadid movement, its main goals and objectives, as well as the representation of national ideas and spirituality in Jadid teachings. The educational and enlightenment views of Jadid thinkers and their efforts to shape national consciousness and lead the people toward science and progress are highlighted. The study also substantiates the continuing relevance of Jadid ideas on education, patriotism, national identity, and spiritual development in contemporary society. The article reveals the significance of the Jadid heritage in the spiritual development of modern society.*

**Keywords:** *Jadidism, national idea, spirituality, enlightenment, national consciousness, education, patriotism, Jadid thinkers, spiritual heritage*

Turkistonda jadid ma'rifatparvarlik g'oyalari keng yoyilib, Chorizm mustamlakasida milliy ozodlik kurashining alohida sahifasi bo'lsa-da, unda har bir mintaqada o'ziga xos jihat va xususiyatlarni kasb etgan. Chor hukumatining Turkistonni bosib olishda Farg'ona vodiysiga alohida e'tibor qaratishi, Farg'ona general-gubernatorligining tashkil etilishi, harbiy-politsiya siyosiy boshqaruv tizimining joriy etilishi mahalliy aholini itoatda tutish uchun to'la safarbar qilinishi bilan alohida siyosiy xususiyat kasb etgan, chunki o'lkada Farg'ona vodiysi ahli ilmiy-intellektual salohiyati, madaniy taraqqiyoti bilan jiddiy ijodiy kuchlarning

markazi ham edi. Shu bois mintaqada politsiya boshqaruvi kuchaytirilgan rejimda mahalliy aholini itoatda ushlab turar, siyosiy xatti-harakatlar o‘z vaqtida shafqatsiz bostirilar edi.

Mustamlakachilik zulmining og‘ir shakliga qarshi Farg‘ona jadid taraqqiyparvarlari ulkan maqsadlar bilan jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida islohotlar olib borishni ko‘zlagan edilar. Uning zamirida doimo mamlakatning ozodligi, mustaqilligi, jamiyat va uning negizi – o‘lka xalqlarining farovon va erkin hayot tarzini yuzaga keltirish uchun fidokorona kurash olib borishgan. Ular keng xalq ommasini milliy ozodlik g‘oyalari bilan ilhomlantirib, milliy o‘z-o‘zini anglash darajasiga ko‘tara oldi. Shu ma’noda, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Chor mustamlakachilariga qarshi kurashda qurol kuchi bilan milliy mustaqillikni ta’minlashdagi harakatining ijobiy natija bilan tugamasligiga o‘lka jadid ziyolilari ham, mahalliy xalq vakillari ham tushunib yetishgan. Boshqaruvning politsiya va harbiy kuchiga tayangan mustamlakachilikka qarshi kurash ilg‘or fikrli jadid ziyolilarini siyosiy tajriba va yetakchi kuch sifatida xalq harakatiga gegemon qatlam sifatida shakllantirdi, ular omma siyosiy saviyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutdi.

Ayni paytda, jadid taraqqiyparvarlari mustamlaka sharoitidagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini o‘rgandi. Ular ushbu xulosalaridan kelib chiqib, xalqning orzu-intilishlarini hisobga olgan holda milliy mustaqillik uchun kurashda siyosiy madaniyat va siyosiy ongini shakllantirishga e’tibor qaratganliklarini ko‘rsatib o‘tish joiz.

Bu holatlar mahalliy aholini qashshoqlik va ojizlik darajasiga keltirgan. “Jadidchilik harakati vakillari aholining nochorligini soliq siyosati oqibati deb tushuntirganlar. Ular hukumatning mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini hisobga olmay soliq siyosati yuritishini qoralagan”[1]. Rus hukumati Turkistonni qaramlikda saqlashda banklarning xizmatlaridan ham salmoqli foydalangan[2]. Jamiyatda ijtimoiy tizimining qoloqligi mahalliy tadbirkor, tijoratchi, dehqon va boshqa aholi vakillarini o‘z-o‘zidan mustamlakachilarga tobe qilib qo‘ygan.

Millat oydinlaridan bo‘lmish Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon vatandoshlarimizni ijtimoiy hushyorlikka chaqirib shunday ogohlantirgan edi. “Ammo qishloqlilardan katta iltimosimiz shuldirki, Ovropaning mo‘dasidan (modasidan), shishasidan (arog‘idan), buzuq axloqidan (fohishabozligidan) namuna olmasdan va bularga bu jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, san‘at o‘xshashlik madaniyatidan namuna olib, bu jihatdan taqlid qilmog‘imiz lozimdir. Ovropaning mo‘dasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bewatan, asir qul qiladur. Bundan saqlaning!”[3] Jadidlarning asarlarida nafaqat diniy, balki axloqiy muammolar ham o‘z ifodasini topgan. Ular axloqiy masalalarni hal qilish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini teran anglaganlar. Xususan, mahalliy aholi turmushidagi ba‘zi urf-odat va an‘analarning mohiyatini tahlil qilib, ularga axloqiy nuqtayi nazardan baho berganlar[4]. Ayni vaqtda Abdulhamid matbuotsiz ma‘rifat rivojini tasavvur qilish mumkin emasligini, xususiy, milliy, sharqona matbuot zarurligini angelaydi. Cho‘lponning “G‘arbning sarguzasht, romantik, ilmiy-badiiy adabiyotini, falsafasini, psixologiyasini mutolaa qilib, yuksak dunyoviy, ijtimoiy g‘oyalarga intilishida, tuzumlarni qiyoslashi, afzalini axtarishi, mustamlakachilik kishanlaridan qutulish yo‘llarini izlashida “Tarjimon”da bosilgan maqola va asarlarning ijobiy

Shuningdek, milliy hunarmandlarning qashshoqlashuvini yana bir jadid bobolarimizdan Hamza Hakimzoda Niyoziy shunday ta‘riflagan: “Xususan, 1912-yildan boshlab aksar kosiblar zararlanib mardikorlikka kira boshlagani uchun kuchsiz mardikorlarni bozor olmay, bu yillardan alar gadoylarga qo‘shilganlar. 1914-yil ramazonda gadoylar boshqalarga qaraganda yuzga qirq foiz bo‘lib ketgan, desak lof bo‘lmaydur. Mana bu razolat, xirachilik va xo‘rlik na yerdan keldi? Turmush xarajatlarining ortganligidanmi? Na‘lsiz kafshlarning ko‘payganligidanmi? Yoxud oyog‘imiz tagidagi kafsh na‘lining aqchasigacha fabrikalar qo‘liga o‘tib ketganligidanmi?... Kecha bir kaifga 20 tiyin olib na‘l qoqib bergan usta bugun darvozalar tagida (Rabb man, yo rabb, man yo ramazon!), deb qichqirmoqdalar”[5]. O‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-madaniy jarayonlaridan xabardor muallif, o‘z fikrini quyidagicha bildirgan “ba‘zilari yetushdura olmay butun bu hunarlaridan kechub boshqa bir yo‘l va kuyg‘a kirub

ketmakdadir... har bir kasb ahli shundog‘dur... Oh, hunarlarimiz! Qaysi tarafg‘a va kimlar qo‘lig‘a asir bo‘ldi?... Bu xo‘rlklarni ilmsizlikdan kelganida shoyad uyalgan va aqlga solib qaragan kishi bilur”[6].

Chor hukumati jamiyat ziyolilarining yetakchiligi, aholining milliy-siyosiy faollashuvidan qo‘rqib, o‘lka xalqlarini jahon sivilizatsiyasidan ajratib qo‘yish maqsadida ma‘naviy-ma‘rifiy ta‘sir, ayniqsa, nashrlarni ta‘qiqadilar, chunki jahon inqilobiy ozodlik harakati musulmon xalqlarini ham o‘z girdobiga tortgan, ozodlik g‘oyalari o‘lkada xalqlarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi, milliy istiqloq g‘oyalarining shakllanishiga sezilarli ta‘sir o‘tkazdi. Masalan, 1911-1912-yillar Turk publitsisti Rafiqbek Al-A‘zamning risolalari o‘zbek tilida jadidlar tomonidan ommaga tarqatilgan. U musulmon dinining sotsializm, anarxizm kabi ta‘limotlarga, ijtimoiy hayotga munosabat yuzasidan ilg‘or fikrlar edi [7].

Boqcharoyda chop etilgan “Tarjimon”, Orenburgning “Vaqt”, Qozonning “Yulduz” kabi gazeta va jurnallari jadidlar milliy-siyosiy faoliyatini mukammallashtirgan. Ular taraqqiyparvar jadidlarni dunyo xalqlarining milliy Uyg‘onish g‘oyalaridan xabardor qilardi. Masalan, Farg‘ona tariqqiyparvarlaridan Is‘hoqxon Junaydulloxon o‘g‘li Ibrat ham 1883-1885-yillarda Qo‘qon shahrining Tunqator madrasasida o‘qib yurgan chog‘laridayoq “Tarjimon” gazetasida milliy istiqloqda ilm olish g‘oyasini olg‘a surgan edi[8].

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ta‘limotida milliy g‘oya va ma‘naviyat masalasi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etilgan. Jadidlar millatni uyg‘otish, xalq ongida ilm-ma‘rifatga intilish, milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkinligini chuqur anglaganlar. Ularning qarashlarida ta‘lim islohoti, ona tiliga hurmat, milliy madaniyat va ma‘naviy qadriyatlarni asrash g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi.

Shu bilan birga, jadidlar milliy g‘oyani umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlantirishga intilganlar. Ular jaholat va qoloqlikka qarshi kurashni, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirishni millat ravnaqi va ma‘naviy yuksalishning muhim sharti deb bilganlar. Jadidlar merosi bugungi kunda ham yosh

avlodni milliy g‘urur, mustaqil fikrlash va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, jadidlar ta’limotida ilgari surilgan milliy g‘oya va ma’naviyat haqidagi qarashlar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki hozirgi davrda ham jamiyat ma’naviy hayotini boyituvchi, milliy taraqqiyot yo‘lida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Убайдула. Бизда шахар солиқлари // Садои Туркистон. – 1915. – 27 февраль.
2. Бехбудий М. Ох, бонкалар бизни барбод этди // Ойна. – 1914. – №19. – Б. 166–167.
3. Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870–1917). – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 176.
4. Бозоров М., Амриддинова Д. Туркистон жадидларининг диний ва дунёвий ғоялари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2005. – №1. – Б. 42.
5. Холматов Ғ.М. Фарғона водийсида жадидчилик: миллий маданият муаммолари // “Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро симпозиум материаллари. – Тошкент: Тошкент миллий университети, 2023. – Б. 857–863.
6. Ниёзий Ҳ.Ҳ. Фақирлик нимадан ҳосил бўлур // Садои Фарғона. – 1914. – 10 август.
7. Садыков Х.Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за национальную независимость в начале XX века: Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Ташкент, 1994. – С. 20.
8. Холматов Ғ.М. Туркистонда жадидчилик маърифатининг миллий фалсафий тафаккур тараққиётига таъсири // The XIII International Science Conference “Information and Its Impact on Social Processes”. – Italy, 2023. – Б. 208–212.